O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

"Tasdiqlayman"
Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori prof. Sh.S.Sharipov
____________
2022 yil "___" ________

# PEDAGOGIKANING KONSEPTUAL ASOSLARI FANINING O`QUV DASTURI
(1-kurs)

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000– Ta’lim |
| **Ta’lim sohasi:** | 110000 – Ta’lim |
| **Magistratura Mutaxassisligi:** | 70110102- Pedagogika va psixologiya |

**Jizzax – 2022**

| | |
|---|---|
| | 2.Mirziyoyev Sh.M., Erkin va farovon, demokratik, O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" 2016.<br>3.Mirziyoyev Sh.M., Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston"2017.<br>4.O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-2021 yillarda O'zbekistonning rivojlantirning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakat strategiyasi. 7 fevral 2017 yil.<br>**Internet saytlari:**<br>1. **www.ziyonet.uz.**<br>2. **www.edu.uz.**<br>3. **www.google.uz.**<br>4. **www.gov.uz.** |
| **9.** | Fanning o`quv dasturi Jizzax davlat pedagogika universiteti Kengashining 202__ yil "___"________dagi ____-sonli Kengash qarori bilan tasdiqlangan. |
| **10.** | **Fan/modul uchun ma`sullar:**<br>Rahmatova F Pedagogika ta'limi nazariyasi kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)dots |
| **11.** | **Taqrizchilar:**<br>N.Kushvaktov JDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti,Umumiy pedagogika kafedrasi mudiri,pedagogika fanlari nomzodi.<br>U.E.Esimovna M.O.Auezov nomidagi Qozog'iston Universiteti Pedagogika tarixi fakulteti "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi"kafedrasi dotsenti<br>Т.Ф.Бурмистр Кандидат наук, доцент высшей школы международных образовательных программ Санкт-Петербургского политехнического университета Петра Великого |

8.

## VIII. Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati


### Asosiy adabiyotlar

1.Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.

2. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.

3. Ro`ziyeva D.I., Tolipov O`.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.

4. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2015.

5. Yuzlikaeva E., Madyarova S., Yanbarisova E., Morxova I. Teoriya i praktika общеу pedagogiki. Uchebnik. – T.: TGPU, 2014.

6. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2012.10

7. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. Darslik. – T.: O`zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.

8.Slastenin V.A., Isaev I.F., Shiyanov Ye.N. Обшaya pedagogika. – M.: VLADOS, 2003.

9. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996.

10. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.

11. Xalikov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. – Toshkent, Iqtisod moliya, 2012.

12. Omonov N.T., Madyarova S.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Iqtisod–moliya, 2009.

13. Mahmudov N. M. O‘qituvchi nutq madaniyati. Darslik. – Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.

14. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2006.

### Qo'shimcha adabiyotlar

1.Mirziyoyev Sh.M., Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi/Xalq so'zi gazetasi.2017 yil, 16 yanvar,№11




| 1. | Fan/Modul kodi 351PKAT04 | O`quv yili 2022-2023 | Semestr I | Kreditlar 4 |
|---|---|---|---|---|
| | Fan/Modul turi Tanlov fan | Ta`lim tili O`zbek | | Haftadagi dars soatlari 4 |

| Pedagogikaning konseptual asoslari | Ham-masi | Jami auditoriya | Ma`ruza | Amaliy | Seminar | Mustaqil ta`lim |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1-semestr | 120 | 60 | 30 | 30 | - | 60 |
| **Jami** | **120** | **60** | **30** | **30** | | **60** |

2.

**I. Fanning mazmuni -**

**Fanni o‘qitishning maqsadi** – magistranlarni pedagogikaning kontseptual asoslarini chuqur o‘zlashtirishlariga erishish va ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash.

Fanning vazifasi – Kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash jarayonida magistrantlarni pedagogikaning kontseptual asoslariga doir dolzarb masalalarni aniqlash, tahlil etish va ulardan amaliyotda foydalanishga o‘rgatishdan iborat.

*Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg‘ulotlari)*

**II. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash yo‘nalishlari(2 soat)**

Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti. Ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalashning asosiy maqsad va vazifalari. Ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash omillari. Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash Milliy dasturlari.

**2-mavzu. Ta'limiy kontsepsiyalarning umumiy tavsifi, mazmuni va mohiyati.(2soat)**

Pedagogik kontsepsiyalarning turlari. Didaktik kontsepsiyalar: an'anaviy (Y.A.Komenskiy, Pestalotssi, Gerbart), pedotsentristik (D.Dyui, V.Lay,G.Kershenshteyn), zamonaviy (dasturlashtirilgan ta'lim, muammoli ta'lim, rivojlantiruvchi ta'lim, insonparvarlik psixologiyasi, kognitiv psixologiya, pedagogik texnologiya, hamkorlik pedagogikasi). Tarbiya kontsepsiyalari.

**3-mavzu. Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat ko‘rsatish printsiplari va**

3.

**ularni amaliyotga joriy etish yo'llari.(2soat)**

Ta'lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish. Ta'lim-tarbiya jarayonining uzluksizligi va izchilligi. Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim oshning hamma uchun ochiqligi. Ta'lim-tarbiya jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish. Uzluksiz ta'limda bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish. Uzluksiz ta'lim tizimida davlat va jamoatchilik boshqaruvini uyg'unlashtirish.

**4-mavzu. Pedagogik tizimlarni loyihalashtirish. (2soat)**

Uzluksiz ta'lim tizimida loyihalashtirishning o'rni va imkoniyatlari. Pedagogik loyihalashtirishning kontseptual asoslari: pedagogik loyihalash shakllari; pedagogik loyihalashning psixologik asoslari; pedagogik loyihalashning tamoyillari; pedagogik ob'ektlarni loyihalashtirishga doir harakatlar tartibi va tavsifi. Ta'lim tizimini loyihalashtirish: uzluksiz ta'lim tizimida innovatsiya; loyihalashtirishning asosiy bosqichlari; loyihalashtirishga doir faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlash shartlari. O'qituvchining loyihalashtirishga doir faoliyatining tuzilishi va o'ziga xosliklari.

**5-mavzu. Hamkorlik pedagogikasining kontseptual g'oyalari(2soat)**

Shaxsiy-insonparvarlik yondashuvi: pedagogik muloqotni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish; zamonaviy sharoitda natijaga olib kelmaydigan to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan metod sifatida voz kechish; ta'lim oluvchi shaxsiga individual yondashuv. Didaktik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi kompleks: fanlarni integratsiyalash; ta'limning variantivligi va tabaqalashganligi; o'rgatishda ijobiy rag'batlardan foydalanish. Tarbiya konsepsiyasi: tarbiyaga insonparvar yondashuv; tarbiyalanuvchilarning individualligini rivojlantirish; milliy va madaniy an'analarni o'zlashtirish; atrof-muhitni pedagogizatsiyalash.

**6-mavzu. Pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan kasbiy muammolar va ularni hal etish strategiyalari. (2soat)**

Pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan muammolarning o'rganishning zaruriyati va o'ziga xos jihatlari. Pedagog faoliyatida yuzaga keladigan muammolarning kelib chiqish sabablari. Kasbiy yetuklik darajasi bilan bog'liqlikda pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan muammolarni hal etish strategiyalari. Yosh pedagog kadrlarning kasbiy moslashuvini amalga



2) **«Zinama-zina» usuli**. Talabalar mavzu bo'yicha yakka tarzda fikrini grafik ifoda etishadi, keyin guruhda muhokama etishadi. Guruhlar taqdimoti o'tkaziladi va grafik materiallar doskaga mantiqiy pog'onalar tarzida ilib boriladi.

3) **"Charxpalak" usuli**. Kichik guruhlar o'z tarqatma materiallaridagi vazifani bajarib, charxpalak aylanishi bo'ylab bir- biriga uzatishadi, har bir guruh boshqalarning ishiga tuzatish kiritadi va oxirida o'zlariga qaytib keladi. Guruhlar o'z ishini tuzatishlar bilan takomillashtirgan holda taqdimot qilishadi.

4) **«Bumerang» usuli**. Talaba bajargan ishini avval o'z kichik guruhida, keyin boshqa kichik guruhda muhokama qiladi, so'ng yana o'z guruhiga qaytib kelib umumlashtiradi. Oxirida guruhlar taqdimoti o'tkaziladi.

5) **«Rezyume» usuli.** Kichik guruhlarda muammolar o'rganilib, tahlil qilinadi va xulosa yozma ifoda etiladi. Taqdimotda xulosa ko'rsatilmaydi, boshqa talabalarning taqdimotga nisbatan fikrlari hisobga olinib yangi xulosa shakllantiriladi va avvalgi yozma xulosa bilan taqqoslanadi.

6) **«Muammo» usuli**. Dastlab muammoli videolavha ko'rsatiladi. Kichik guruhlar namoyish vaqtida muammolarni qayd qilib borishadi. Keyin ularning echimlarni o'zaro almashishadi va tuzatish kiritishadi. Oxirida muammo bo'yicha jamoaning xulosasi shakllantiriladi.

**VII. Kreditlarni olish uchun talablar.**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to`g`ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

**Joriy nazorat.** Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (juftlik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.

Jami seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.

**Oraliq nazoratlar.** Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.

Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.

**Yakuniy nazorat.** Yakuniy nazorat yozma shaklida o'tkaziladi. Talabaning yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.



*3) Klaster sxemasi*

Bu usul fikrni erkin bayon qilish uchun qo'llaniladi. Masalan, talaba o'tilgan mavzu bo'yicha klaster tuzishi mumkin. O'rtaga kalit so'z, tarmoqlarga unga bog'liq boshqa atamalar yoziladi. Ular ham o'z navbatida tarmoqlarga ajralishi mumkin.

Venn diagrammasi O'rganilayotgan ob'ektlarni taqqoslash, o'xshash va farqli jihatlarini topish, tahlil qilish uchun qo'llaniladi. Diagrammadagi doirachalar alohida ob'ektni, kesishmalar esa ularning o'xshash va bog'liq jihatlarini bildiradi. Talabadan ob'ektlarning alohida (1-3), o'zaro bog'liq (4-6) va umumiy (7) jihatlarini yozma ifodalab berish talab etiladi.

**4) SWOT–tahlil.** Bu organayzer talabalarda tizimli fikrlash, taqqoslash, baholash, tahlil qilish, fikrni davom ettirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. SWOT atamasi inglizcha so'zlarning qisqartmasi hisoblanadi: Strengths – ob'ektning kuchli jihatlari; Weakness – kuchsiz jihatlari; Opportunities – tashqi imkoniyatlari; Threats – tashqi xavf-xatarlari. Talaba yangi qatordan S, W, O, T harflarini yozib yoniga ob'ektning mos sifatlarini yozib chiqadi.

**5) "Baliq skeleti" sxemasi.** Bu organayzer tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Balik skeletining bosh qismiga – mavzu, yuqori qismiga –muammolar, pastki qismiga – tasdiqlovchi dalillar yoziladi.

**6) Aqliy hujum usuli.** Bu usul dars mavzusiga oid savolga javob topish maqsadida g'oyalarni jamlash va saralash uchun qo'llaniladi. Har bir talaba o'zining shaxsiy g'oyalarini ilgari suradi. Bosqichlari – muammoli vaziyat paydo qilish; yechimni topish uchun g'oya, fikr berish; yechimlar taqdimotini eshitish; yechimlarni solishtirish va tanlash; xulosa qilish.

**7) Esse.** Bu mavzu bo'yicha cheklangan hajmda yoziladigan insho hisoblanadi. Esseda talaba o'quv materiali bo'yicha o'zining shaxsiy fikrini erkin ifoda etadi.

***Interfaol o'qitish usullari (Activity)***

Amaliy mashg'ulotlarda interfaol o'qitish usullari qo'llaniladi. Bu usullar talabalarda jamoada ishlash, kasbga oid mustaqil va tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Quyida fan xususiyatlariga xos ba'zi usullar bayon etilgan.

**1) «Tushunchalar tahlili» usuli**. Talabalar tushunchalarni dastlab yakka tarzda va keyin jamoada muhokama qilishadi. O'qituvchi jamoaning fikrini yo'naltirib turadi va oxirida ekranga atamalarning izohini chiqaradi. Talabalar o'z fikrlarini taqqoslashadi, baholashadi va bilimlarini mustahkamlashadi.



| | |
|---|---|
| | oshirishda stajyorlik faoliyatining o'rni. |
| 4. | **7-mavzu. Oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning kontseptual asoslari. (2soat)**<br>Oliy ta'limda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tizimi. Oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari. Oliy ta'limda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning metodik ta'minoti.<br>**8-mavzu. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik-psixologik tayyorgarligini tarkib toptirish modellari. (2soat)**<br>Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash taktikasi. Pedagog shaxsini tarkib toptirish modellari: kommunikativ model; faol izlanish modeli; bo'lg'usi pedagog shaxsini rivojlantirishning refleksiv modeli; imitatsion model; amaliy faoliyat modeli; kasbiy-fikriy o'z-o'zini rivojlantirish modeli.<br>**9-mavzu. Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash. (2soat)**<br>"Kompetent" va "kompetentli yondashuv" tushunchalari. Kompetentli yondashuv – oliy ta'limni modernizatsiyalashning yetakchi g'oyalaridan biri. Kasbiy kompetenlikning turlari. Kasbiy kompetentlik mezonlari va ko'rsatkichlari.<br>**10-mavzu. Ta'lim paradigmalari. (2soat)**<br>Ta'lim paradigmalari: ularning paydo bo'lishi va rivojlanish tendentsiyasi. An'anaviy ta'lim paradigmasi. Ratsionalistik ta'lim paradigmasi. Fenomenologik ta'lim paradigmasi. Texnokratik ta'lim paradigmasi. Ezoterik ta'lim paradigmasi.<br>**11-mavzu. Ta'lim mazmunini belgilashga doir konsepsiyalar. (2soat)**<br>Ilmiy-texnik taraqqiyot va ta'lim mazmuni. Didaktik entsiklopedizm konsepsiyasi. Didaktik formalizm konsepsiyasi. Didaktik pragmatizm konsepsiyasi. Funktsional materializm konsepsiyasi. Ta'limning paradigmal konsepsiyasi. Ta'limning kibernetik konsepsiyasi.<br>**12-mavzu. Ta'lim mazmunini belgilash tamoyillari va mezonlari. (2soat)**<br>Ta'lim mazmunining barcha elementlarini uzluksiz ta'lim bosqichlarida jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanish talablariga mos bo'lish tamoyili. Ta'lim mazmuni va tashkiliy jihatlarining yaxlitlik tamoyili. |

Ta'lim mazmunini strukturalashning yaxlitlik tamoyili. Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili. Ta'lim mazmunini fundamentallashtirish tamoyili. Ta'lim mazmunining ketma-ketlik tamoyili. Ta'lim mazmuning muntazamlilik tamoyili. Ta'lim mazmunining o'quvchilarning yosh va bilish imkoniyatlariga moslik tamoyili.

**13-mavzu. O'quv materiallarini tizimlashtirishning didaktik parametrlari. (2soat)**

O'quv materiallari, uning belgilari va tuzilishi. O'quv materiallarining mantiqiy tuzilishi. O'quv materiallarini tizimlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. O'quv materiallarini modellashtirish. O'quv materiallarining information ko'rsatkichlari. Kontsentrizm tamoyili asosida o'quv materiallarini tizimlashtirishning afzalliklari. Kontsentrizm tamoyiliga asoslangan ta'lim modeli va uning tuzilishi.

**14-mavzu. Pedagogik fasilitatsiya vositasida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish va o'tkazish. (2soat)**

Pedagogik fasilitatsiya – o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish va o'tkazishning muhim vositasi. Pedagogik fasilitatsiya vositasida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish va o'tkazishning o'ziga xosliklari. Pedagogik fasilitatsiya vositasida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish texnologiyasi.

**15-mavzu. O'quvchi-yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish. (2soat)**

Globallashuv sharoitida o'quvchi-yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning nazariy masalalari. O'quvchi-yoshlarning mafkuraviy immunitetiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ma'naviy tahdidlar. O'quvchi yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik tizimi.

**III.Amaliy mashg`ulotlari bo`yicha ko`rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, «Keys-stadi» texnologiyasi ishlatiladi, Keyslar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

Amaliy mashg`ulotda yangi pedagogik texnologiyalar yoki interaktiv usullardan foydalanish uchun imkoniyatlar katta bo`ladi. O`qituvchi darsga kirib tashkiliy ishlarni o`tkazadi, auditoriyani darsga tayyorgarligi yozish va o`chirish vositalarining mavjudligi hamda o`quvchilarning davomati



5. **V. Ta`lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalar.**

Fanni o'zlashtirish natijasida magistr:

- pedagogikaning qonun va qonuniyatlari haqida;
- pedagogik faoliyat bilan bog'liq muammolar haqida;
- o'quv materiallarini tanlab olish tamoyillari va mezonlari haqida;
- interfaol ta'limning o'ziga xosliklari haqida;
- pedagogik kontsepsiyalar haqida:
- shaxs ijtimoiylashuvining pedagogik omillari ***haqida bilimga ega bo'lishi;***
- yaxlit pedagogik jarayon qonun va qonuniyatlarini qo'llash;
- pedagogik faoliyat bilan bog'liq muammolarning obyektiv va subyektiv omillarini aniqlash;
- o'quv materiallarini tizimlashtirish;
- interfaol ta'limni tashkil etish;
- ta'lim va tarbiyaga doir zamonaviy yondashuvlardan samarali foydalanish;
- shaxsning madaniy-intellektual rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;***
- pedagogik muammolarni aniqlash;
- pedagogik muammolarni tahlil etish;
- pedagogik muammolarni hal etish yo'llarini izlab topish;
- pedagogikaga doir yangiliklarni o'zlashtirish;
- pedagogikaga doir yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish ***malakalariga ega bo'lishi lozim.***

6. **VI.Ta`lim texnologiyalari va metodlari.**

***Grafik organayzerlar***

Grafik organayzerlar ma'ruza, amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida talabalar o'quv materiallarini samarali o'zlashtirishlari uchun joriy etiladi. Quyida ularning ba'zilari keltirilgan.

**1) BBB jadvali.** Barcha ma'ruza darslarida qo'llaniladi. BBB usuli ("bilaman", "bilishni xohlayman", "bilib oldim") orqali talaba o'zini kuzatishi, o'qituvchi esa darsga baho berishi mumkin. Talaba dars boshida mavzu bo'yicha nimani bilishini (B1) va yana nimalarni bilishni xohlashini (B2) daftariga yozib qo'yadi. Dars so'ngida nimalarni bilib olganligini (B3) qayd qilib qo'yadi.

**2) Insert usuli.** Bu usul matnni o'zlashtirishda qo'llaniladi. Talaba sahifa hoshiyasiga o'z belgilarini qo'yib ularga munosabat bildiradi. Masalan: "v" – zarur; "–" - xato; "+" - yangi; "!" – e'tibor qiling; "x" - ortiqcha; "*" - ko'chirish kerak; "?" – tushunarsiz va h.k.

tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlami yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma berish oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Talaba mustaqil ishi (TMI) - muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

**IV.1. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Zamonaviy pedagogikaning konseptual g'oyalari va tamoyillari.
2. Ta'lim dasturlarini loyihalashga doir konseptual yondashuvlar.
3. Modul ta'lim dasturlarini ishlab chiqishning konseptual asoslari.
4. Variantiv o'quv dasturlarini ishlab chiqishning konseptual asoslari.
5. O'quv-metodik komplekslarini ishlab chiqishning konseptual asoslari.
6. Ta'lining innovasion kartasini ishlab chiqishning konseptual asoslari.
7. Pedagogik faoliyatning konseptual asoslari.
8. Ta'lim pragmatizsiyasi pedagogik kadrlarni tayyorlashning konseptual asosi sifatida.
9. Yosh davrlari pedagogikasining ilmiy- konseptual asoslari.
10. Pedagogik texnologiyaning konseptual asoslari.
11. Komyuter texnologiyasining konseptual asoslari.
12. Pedagogik diagnostikasining konseptual asoslari.
13. Zamonaviy ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari.
14. Muammoli ta'limning konseptual asoslari.
15. Integrativ pedagogikaning konseptual-metodologik va ilmiy-nazariy asoslari.



aniqlanadi. Amaliy mashg`ulot darslarida savol-javoblar, diskussiyalar tashkil qilinadi, faol ishtirok etgan talabalar rag`batlantiradi.

Amaliy mashg`ulotda ko`proq talabalar guruhini bir nechta kichik guruhlarga ajratib o`qitishning aqliy hujum, bahs-munozara, suhbat metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu metodlar talabalarni mavzu yuzasidan ko`proq mustaqil fikr yuritishga, o`z fikrini bayon etishga undaydi. Darsga bo`lgan qiziqishlarini oshirib, diqqatlarini jamlashga o`rgatadi. Bundan tashqari amaliy mashg`ulot so`ngida o`qituvchi har bir talabaning faoliyatini to'g'ri va xolisona baholashga erishishi zarur. Shuningdek, baholarni e`lon qilib faol o`quvchilarning familiyalarini aytib rag`batlantirishi va aksincha passiv, nutqi rivojlanmagan yoki uyatchan talabalarga yengil tanbeh berishi ham muhim ahamiyatga ega.

Amaliy mashg`ulot darslarini dastur bo`yicha sifatli o`tilishini talabalar bilimining o`z vaqtida adolatli va xolisona baholanishini fandan ma`ruza olib boruvchi o`qituvchi muntazam nazorat qilib borishi shart. Shuningdek amaliyot o`qituvchisi bilan dastur bajarilishi uchun amaliy darslarda nimalarga alohida e`tabor qaratilishi, ma`ruzada mavzularni qaysi qismlari kam yoki ko`proq yoritilgani va boshqa o`quv-uslubiy masalalarda maslahatlashib fikrlashib turishlari lozim.

**III.1. Amaliy mashg`uloti mavzulari**

**1-mavzu: Uzluksiz ta'lim sohasini isloh etishning strategik chora-tadbirlari. (2soat)**

**Reja:**

1. Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti
2. Ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalashning asosiy maqsad va vazifalari.
3. Ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash omillari

**2-mavzu: Ta'lim va tarbiya jarayonlarini rivojlantirish tendensiyasi va ustuvor yo'nalishlari. (2soat)**

**Reja:**

1. Ta'lim va tarbiya jarayonlarini rivojlantirish tendensiyasi
2. Ta'lim va tarbiya jarayonlarini rivojlantirishning ustivor vazifalari

**3-mavzu: Zamonaviy ta'limiy konsepsiyalar. (2soat)**

**Reja:**

1. Zamonaviy ta'limiy konsepsiyalar
2. Zamonaviy ta'limiy konsepsiyalarning ta'limdagi o'rni

**4-mavzu: Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari. (2soat)**

**Reja:**

1. Ta'lim jarayonini tashkil etish omillari
2. Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari

**5-mavzu: Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik faoliyatni loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish. (2soat)**

**Reja:**

1. Bo'lajak pedagoglarni ta'lim jarayoniga tayyorlash
2. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik faoliyatni loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish

**6-mavzu: Kooperativ ta'lim: imkoniyatlari va afzalliklari. (2soat)**

**Reja:**

1. Kooperativ ta'lim: imkoniyatlari
2. Kooperativ ta'lim: afzalliklari

**7-mavzu: Kasbiy-pedagogik muammolar: mohiyati va tavsifi. (2soat)**

**Reja:**

1. Kasbiy-pedagogik muammolar
2. Kasbiy-pedagogik muammolarni hal qilish yo'llari

**8-mavzu: Oliy ta'lim tizimida innovatsion o'qitish jarayonini tashkil etish. (2soat)**

**Reja:**

1. Innovatsion o'qitish jarayonini tashkil etish.
2. Oliy ta'limda innovatsion o'qitish jarayonini tashkil etish.

**9-mavzu: Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash modellari va taktikasi. (2soat)**

**Reja:**

1. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash modellari
2. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash taktikasi

**10-mavzu: Kasbiy kompetentlik: tuzilmasi va mohiyati. (2soat)**

**Reja:**

1. Kasbiy kompetentlik



2. Kasbiy kompetentlik turlari

**11-mavzu: Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi. (2soat)**

**Reja:**

1. Ta'lim paradigmasi
2. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi

**12-mavzu: Ta'lim mazmunini loyihalashtirish. (2soat)**

**Reja:**

1. Ta'lim mazmuni
2. Ta'lim mazmunini loyihalashtirish

**13-mavzu: Zamonaviy ta'lim mazmunini tanlash tamoyillari. (2soat)**

**Reja:**

1. Ta'lim mazmunining barcha elementlarini uzluksiz ta'lim bosqichlarida jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanish talablariga mos bo'lish tamoyili
2. Ta'lim mazmuni va tashkiliy jihatlarining yaxlitlik tamoyili
3. Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili.

**14-mavzu: O'quv materiallarini strukturalashtirish(2soat)**

**Reja:**

1. O'quv materiallari, uning belgilari va tuzilishi
2. O'quv materiallarini tizimlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.
3. O'quv materiallarini modellashtirish

**15-mavzu: Fasilitatsion yondashuv asosida mustaqil ishlarni tashkil etish texnologiyasi**

**Reja:**

1. Pedagogik fasilitatsiya – o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish va o'tkazishning muhim vositasi
2. Pedagogik fasilitatsiya vositasida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish va o'tkazishning o'ziga xosliklari.
3. Pedagogik fasilitatsiya vositasida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish texnologiyasi

**IV.Mustaqil ta`lim va mustaqil ishlar.**

Mustaqil ta'lim – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishni, o'zlashtirish darajasini amalga oshiriladigan ta`lim shakllaridan bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari, bilimlar taqsimotiga tayyorgarligi asosida auditoriyadan tashqarida bajariladi.

Shuning uchun talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish,